

BUXORO AMIRLARI VA AMALDORLARINING ROSSIYADAGI BUNYODKORLIK ISHLARI

*Ismailov Gafurjon Xasanovich, Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti (PhD)*

CONSTRUCTION PROJECTS OF BUKHARA EMIRS AND OFFICIALS IN RUSSIA

*Ismailov Gafurjon Hasanovich, Doctoral student at
Bukhara State University*



[https://orcid.org/0009-0003-
9110-8788](https://orcid.org/0009-0003-9110-8788)
e-mail:
g.x.ismailov@buxdu.uz

СТРОИТЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ БУХАРСКИХ ЭМИРОВ И ЧИНОВНИКОВ В РОССИИ

*Исмаилов Гафуржон Хасанович, докторант Бухарского
государственного университета*

Annotatsiya: Buxoro amirligi o‘z davrida juda muhim geosiyosiy mamlakatlardan bo‘lib, Sharq va G‘arbning yirik mamlakatlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni o‘rnatgan. Ushbu maqolada Buxoro hukmdorlari va amaldorlari homiyligida Rossiyada barpo etilgan inshootlar haqida, qolaversa, ularning tarixi va bugungi holati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, mang‘itlar sulolasi, amir Muzaffar, Rossiya imperiyasi, waqf, amir Abdulahad, tekke, amir Olimxon.

Abstract: The Emirate of Bukhara was one of the most important geopolitical countries of its time and established economic and cultural ties with major countries of the East and West. This article examines the structures built on the territory of the Russian Empire under the patronage of Bukharan rulers and officials, as well as their history and current state.

Key words: Bukhara Emirate, Mangit Dynasty, Emir Muzaffar, Russian Empire, Waqf, Emir Abdulahad, Tekke, Emir Alimkhan.

Аннотация: Бухарский эмират был одной из важнейших геополитических стран своего времени и установил экономические и культурные связи с крупными странами Востока и Запада. В данной статье рассматриваются сооружения, построенные на территории Российской империи под покровительством бухарских правителей и чиновников, а также их история и современное состояние.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Мангитская династия, эмир Музаффар, Российская империя, Вакф, эмир Абдулахад, текке, эмир Алимхан.

KIRISH. Buxoro o‘rta asrlarda Sharq va G‘arb dunyosida mashhurlik darajasiga erishib, ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylangandi. Buxoroyi sharif shon-shuhratı yuksaklikka ko‘tarilib, XIX asr o‘rtalariga qadar Buxoro geografik hudud sifatida nafaqat Buxoro va uning atroflarini, balki butun bir mintqa ma’nosini

ifodalagan. Buxoro atamasi Turkiston tushunchasi bilan yonma-yon qo‘llanilib, Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab savdo-sotiq qiluvchi Turkistonning barcha shaharlaridan chiqqan savdogarlarini “Katta buxoroliklar”, Qoshg‘ar (Xitoy) savdogarlarini “Kichik buxoroliklar” deb atash tamoyilga kirgan. Musofirlikda umrguzaronlik qilgan turkistonliklar

o‘zlarini “Turkistoniy” deb tanitish bilan birga “Buxoriy” deb ham atashgan. Demak “Buxoriy” atamasi G‘arbiy Turkiston mintaqasidan chiqqan kishilar nomiga qo‘yib aytilgan “Buxoriy” tushunchasi qo‘llanilishining muhim omili, avvalo Buxoroyi sharifning Sharq va islom dunyosida mashhurligiga nisbat bo‘lsa, ikkinchidan hadis ilmining sultonni Imom al-Buxoriy haqqi-hurmati tufaylidir. Sharq mamlakatlarida “Buxoriy”lardan Imom al-Buxoriy hurmati haqqi 5 yilgacha soliq olinmagan, muhojirlar soliqlardan o‘zlarini tiklab olguncha soliqlardan darxon etilib, ularga oliy najot va oliy nasab kishilar sifatida qarashgan[1,284].

TAHLIL VA NATIJALAR. Mang‘itlar sulolasи hukmronligi yillarda (1756-1920) Buxoro amirligi mintaqada alohida nufuz va qudratga ega bo‘lgan davlat edi. Amirlik 1868-1973-yillardagi noteng shartnomalar tufayli protektorat davlatga aylangan bo‘lsa-da, ichki masalalarda mustaqil siyosat yuritish mavqeini imkon qadar saqlab qoldi.

Amir Muzaffarning (hukmronligi 1860-1885) 13 nafar o‘g‘il farzandlari orasida Amir Abdulahadxonga taxtni boshqarish nasib etdi. U 1859-yil 26-martda (ayrim manbalarda 1857-yil) Karmanaga fors kanizagi Shamshot ismli oqila ayoldan dunyoga kelgan. Abdulahad Sankt-Peterburgda (Rossiya) kadetlar maktabida o‘qidi. U o‘zbek, tojik tillari bilan bir qatorda, rus va arab tillarini ham bilgan. U 1882-yilda Moskvaga jo‘natilgan va taxt vorisi deb tan olingan Abdulahadning taxtga tinchlik yo‘li bilan kelishiga Rossiya hukumati vakili general-leytenant A.Annenkov va Hisor hokimi, Amir Muzaffarning otalig‘i Ostonaqilibek – biy qushbegi (1819-1906) asosiy rol o‘ynagan. Abdulahad shoir sifatida ham iqtidorli bo‘lib, “Ojiz” taxallusi bilan fors-tojik tilida she’rlar ijod qilgan va devon tuzgan. Amir Abdulahad Rossiya imperiyasining Moskva, Sankt-Peterburg, Jeleznovodsk, Krasnavodsk, Kiyev, Odessa, Yekaterinoslav, Boku, Tiflis, Batumi, Sevastopol, Bog‘chasaroy, Nijniy Novgorod, Irbit kabi o‘nlab shaharlari bo‘ylab sayohat qilgan. U so‘nggi bor Rossiya poytaxti Sankt-Peterburgga borganiga taxtga o‘tirganiga 25 yil (1910) to‘lgandi. U badavlat savdogar (Qorako‘l savdosi) sifatida Buxoro amirligida uchinchi o‘rinda turgan amir Abdulahadning Rossiya Markaziy Davlat Bankida oltin hisobida 27 million rubl kommersatsiya sifatida 7 million oltin rubl puli saqlangan. Mamlakat ichida

bir qator islohotlar o‘tkazilib, qiyonoqqa solish, minoradan tashlab o‘ldirish jazosini bekor qilgan, Ashxoboddagi turkman militsiyasiga o‘xshash militsiya tashkil etgan. Mamlakatda pochta, telegraf, telefon, kinematografiya kabi texnik yangiliklar uning davrida kirib kelgan. Amir Abdulahad Rossiya imperiyasi hukmdorlari (Aleksand III, Nikolay II) nazdida qo‘li ochiq shaxs va hukmdor sifatida tanilib, ular hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lgan. 1891-1892-yillarda Volgabo‘yida yuz bergen dahshatli ocharchilik tufayli qiynalganlarga 100 ming yordam puli o‘tkazgan. 1904-1905-yillardagi rus-yapon urushida Rossiya floti foydasiga 1 million rubl yordam puli bergen. U Turkiston Xayr-ehson jamiyati a’zosi bo‘lib, havaskor arxeologlar to‘garagiga oltin tangalar hadya etgan, kazak va kadet korpuslari hisobiga pul o‘tkazib turgan. Amir Hijoz temiryo‘li qurilishiga 150 ming rubl ajratgan. U o‘nlab rus ordenlari sohibi bo‘lib, jumladan, “Svyatoy Andrey pervozvanniy” zanjiri bilan, I darajali Italian korxonasi ordeni bo‘lib, fransuz ordenlari hisoblangan “Faxriy legion” va “Katta ofitser kresti” bilan taqdirlangan. Imperator oliy hazratlari unga general-polkovnik unvonini bergen. Rossiya hukmdor va amaldorlari nazdida “Rossiyaning haqiqiy do‘sti”, “Ehtiyotkor va o‘yxayolli siyosatchi” deb baholangan amir Abdulahad ishonchga kirgan edi[2,218-222]. Amir Abdulahad jadidchilikning “g‘oyaviy otasi” Ismoilbek G‘aspirali (1851-1914) bilan ham yaxshi munosabatda bo‘lib, G‘aspirali uning taklifi bilan 1893-yilda (izoh 1892-yil Abdulahad sanatoriyadan qayta turib, Bog‘chasaroyda Ismoilbek G‘aspirali bilan uchrashib, muloqtda bo‘lgan edi) Buxoroda bo‘lgan va Ismoilbek G‘aspirali amirni Buxoroda jadid maktabi ochishga ko‘ndirgan. Yuqorida ko‘rsatilgan yilda buxorolik yirik savdogar Po‘latxo‘ja Karomatullohxo‘ja o‘gli hovlisida ushbu maktab ochilgan[3,288].

Buxoro amirligining so‘nggi hukmdori amir Olimxon amir Abdulahadning to‘rt o‘g‘lidan biri, ya’ni ikkinchisi bo‘lib, 1880-yilda tavallud topgan. Said Olimxon 1893-1896-yillarda Sankt-Peterburgda kadetlar maktabida tahsil olgan. U otasi hayotligi paytida Nasaf viloyatida 12 yil hokimlik qildi, Qashqadaryo ustiga ko‘prik qurdirdi. Kichik Karmanaga o‘tkazilib, ikki yillik hukmronlikdan so‘ng 1910-yilda otasi vafotidan so‘ng taxtni egalladi. Uning xayrli ishlaridan Boloyi Hafz degan

joyda madrasa bonyod etgani, Buxoro minorasi qoshida “Dor ul-ulum” (“Bilimlar uyi”)ni bonyod etgani, madrasada mudarrislarga maosh belgilab, butun sarf-xarajatlarni davlat hisobidan qoplanishini joriy etgani kabilardir. Shuningdek, otasi tugata olmagan Rossiya shaharlaridagi inshootlarni oxiriga yetkazdi. Biroq, uning hukmronligi 10 yil davom etib, 1920-yilda bolsheviklar tomonidan amirlik tugatildi va amir Olimxon muhojirlikka ketib, umri Afg'onistonda g'urbat va Vatan ayrilik‘ida o'tdi[4,70-75]. Amir Abdulahadxon XIX asrning 90-yillarida Buxoro musulmonlarining Haj ziyyaratiga jo'nab ketadigan Astraxan shahrida hojilar uchun masjid qurilishi ishiga mablag‘ ajratdi. Rossiya imperiyasi poytaxti Sankt-Peterburg shahridan Abdulahad yer maydoni sotib olib, Buxoro boyalarining moddiy madadiga tayangan holda 3 qavatli masjid qurdirtirdi. Masjid hashamatli bo‘lib, 5-10 ming kishi unda bir yo‘la namoz farzini ado etishi imkonni bo‘lgan. Ushbu masjidda Sankt-Peterburgdagi Buxoro savdogarlari, Turkiston mintaqasidan Rossiyaga borib qolgan muhojirlar bir yo‘la ibodat qilganlar. Masjid atrofi obodonlashtirilib, uning oldida mevali va manzaralni daraxtlar va gullar o‘tzazilgan. Amir Abdulahadning Rossiya shaharlarida bonyod etgan musulmon masjidlari haqida O‘zbekiston tarixi fanida ko‘p yozildi[5,68-70].

Amirning Sankt-Peterburgdagi masjidi amir mablag‘i va badavlat savdogar boylar homiyligida vaqt-i vaqt bilan ta’mirlab turilgan. XX asr 20-yillarida mazkur masjid holati qoniqarli darajada bo‘lgan. BXSR hukumati rahbarlaridan Qori Yo‘ldosh Po‘latov 1922-1923-yillar orasida Rossiyaning Sankt-Peterburg va Moskva shaharlarida xizmat safarida bo‘lib, mazkur masjid ko‘rinishi unda musulmon jamoalari namoz farzini ado qilib turganligi haqida ma’lumot beradi. UBXRning matbuot organi hisoblangan “Buxoro axbori” gazetasining fevral-mart oyalarida bosilgan 5 ta sonida ketma-ket o‘z safari taassurotlarini “Yo‘l xaritalari” nomli maqolada bayon etgan. Jumladan, u o‘z maqolasida “Buxoro amirining Sankt-Peterburgda masjid qurdigani yaxshi holat, biroq ushbu shaharda musulmonlar uchun masjid bilan birga dorilfunun qurdiganda yanada a’lo ish bo‘lardi”[6], - deb yozgan.

Amir Abdulahad o‘z hukmronligi davrida Qora dengizdan 2 chaqirim uzoqlikda joylashgan (1

chaqirim= 945-960 metr) baland tepalik ustida hordiq chiqarish va dam olish maqsadida 3 qavatdan iborat Yalta saroyini qurdirgan. Yalta saroyi milliy va xorijiy hunarmandchilik, Sharq va G‘arb me’morchiligi an’analari asosida bonyod etilgan bo‘lib, bino ichki va tashqi devorlariga kandakorlik (naqsh berish) usuli, ebro‘ san’atidan foydalaniib, anvoyi gullar, turli qushlar tasviri tushirilgan. Saroy qarshisida 2 qavatli yordamchi inshootlar barpo etilib, fontanlar o‘rnatilgan. Turkiston florasini ko‘rsatib va eslatib turuvchi uy va yovvoyi hayvonlarning “jonli burchagi” tashkil etilgan. Yalta saroyida amir va uning amaldorlari asosan yoz oylarida dam olishgan. Amirlik tartibi ag‘darilgan 1920-yildan so‘ng undagi oltin buyumlar (tarelka, qoshiq va h.k) ingliz zabitlaridan birining sa'y-harakatlari bilan Angliyaning Plemut shahriga olib ketilgan[7,34-35]. Keyingi ma’lumotlarda Yalta saroyi oldida mevali va ihota daraxtlarining ko‘chatlari asosida bulvar (park) yaratilgani, unda anvoyi gullar parvarishlanib, sayroqi qushlar qafaslarda saqlangani haqida ham yozilgan[8,90]. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, amir Abdulahadxon Qrim yarimorolida Yalta saroyidan uncha uzoq bo‘limgan joyda 2-3 tanoblik yer xarid qilib, oliy “Dilkusho” bog‘ini barpo etgan. Bog‘da asosan Turkiston va xorijdan keltirilgan mevali daraxtlar parvarishlanib, bog‘bonlar amirlikdan olib borilgan. Amir har yili yozda dam olish uchun Yalta shahriga borar ekan, Rossiya amaldorlari bir guruhini bu shaharda “Buxoro oltin yulduzi” bilan mukofotlagan.

Amir Abdulahadning birgina Yalta shahridagi ijtimoiy yordam loyihalari bir necha bor amalga oshirilgan. Jumladan, “Yalta gimnaziyasida tahsil olayotgan talabalar uchun yordam ko‘rsatish maqsadida mablag‘ ajratgan”, Yalta shahrining asl qiyofasini saqlash maqsadidagi loyihaga pul o‘tkazgan, “Janubiy qirg‘oq tatarlari nochor qismi uchun ijtimoiy yordam loyihasi” amalga oshirilgan.

Rossiya imperiyasidagi matbuot organlari Amir Abdulahadning faoliyati va saxiyligi haqida o‘z sahifalarida maqola va xabarlar bosib turgan. Ayniqsa, “Rodina”, “Niva” kabi gazetalarda Sankt-Peterburgda bonyod etilgan masjid haqida ko‘pgina ma’lumotlar keltirilgan. Ularda yozilishicha, amir Yevropada eng katta masjid qurish maqsadida Sankt-Peterburgdan 350 ming rublga yer maydoni xarid qilgan va yana qurilish ishlariga 100 ming rubl

sarflagan. Rossiyadagi buxorolik savdogarlarni bu xayrli ishga jalb qilib, ulardan 200 ming rubl to‘plangan. Masjid qurilishiga ramziy ma’no berilib, bolg‘a va belkurak olib kelgan hamda qurilishini boshlash kuni 1910-yil 3-fevralda, ya’ni amir taxtga chiqqanligining 25 yilligiga mo‘ljallangan. Tantanali masjid qurilishi marosimini Oxun Boyazid o‘zining tabrik so‘zi bilan ochgan. U o‘z tabrigida qurilishi boshlanadigan masjid ko‘rkamligi va go‘zalligi bilan dunyoda yagona bo‘lishi va “Alloh go‘zallikni sevadi!” kabi fikrlarni bildirgan. Uning nutqidan so‘ng Amir Abdulahad qurilish ishlarini boshlash uchun binoga birinchi g‘ishtni qo‘ygan. “Niva” gazetasi o‘zining 1910-yil 8-sonida: “Sankt-Peterburg shahri aholisi amirni yaxshi qabul qildi, amir bundan mamnun edi. Bu xursandchilikni amir musulmonlarga xos xususiyat, “Yaxshi kunda beva-bechoralarga yordam berish” deb shahar aholisining nochor qismiga 5000 rubl hadya qildi[9,152-155].

XULOSA. Ta’kidlash joizki, Buxoro songgi amirlarining Rossiya imperiyasi hududida barpo etgan inshootlari va bog‘-rog‘lari tarixini yanada mukammal o‘rganishga ehtiyoj bor. Bu orqali milliy davlatchiligidizning xorijdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlardagi o‘rnini, milliy diplomatiyamiz tarixini yana chuqurroq o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ladi va eng asosiysi, xorijdagi vatandoshlarimiz tarixi, muhajirlik sabablari va oqibatlari, ularning bugungi kundagi hayotini yaqqol tahlil etish uchun moddiy asosga ega bo‘lamiz. Bu kabi bino-yu inshootlar hozirgi kunda qaysi qit’ada, qaysi mamlakatda joylashganligidan qat’i nazar, ular

bizning o‘tmishimiz, tariximizning bir bo‘lagi bo‘lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sayfiddin Jalilov. Buxoriylar qissasi (Muhojirat tarixidan lavhalar).-T.: Toshkent Islom Universiteti, 2006.
2. Hayitov Sh. Buxoro hukmdorlarining xorijda qurdirgan inshootlari (Muammoning manbashunosligi va tarixshunosligi) “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro” mavzusida Respublika ilmiy nazariy anjuman materiallari. Buxoro, 2010.
3. Ismoil Gaspirstkiy va Turkistan / Mas’ul muharrir Naim Karimov .-T.: Sharq. 2008.
4. Hayitov Sh. Buxoro va Buxoriylarning jahoniy shuhrati.T.: Navro‘z. 2020.-B70-75. va h.k.
5. Sayid Mansur Olimiy. Buxoro-Turkiston beshigi. Fors tilidan tarjima va tarjimon nomidan izohlar muallifi dots. Halim To‘rayev.-Buxoro; Buxoro nashriyoti. 2004.
6. Qori Yo‘ldosh Po‘latov. Yo‘l xotiralari // Buxoro axbori; 134-son; 1923-yil 1-fevral (arab imlosida).
7. Hayitov Sh. Buxoro amirligining Yaltadagi saroyi // Buxoro Mavjlari, 2007.- N8.
8. Hayitov, J.Sh. Turkistonda yangi ekin navlarining tarqalishi va ulardagi o‘zgarishlar (XIX asr oxirlari-XX asr boshlar).-Buxoro nashriyoti, 2018.
9. Hayitov Sh. Rizayev B. Amir Abdulahadning Rossiya imperiyasida qurdirgan inshootlari // Pedagogik mahorat (Buxoro) 2017.-N1.
10. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiyatiga o‘yalarining milliy davlatchiligidagisi o‘rni. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 247-250.

